
BAHORGGA PESHVOZ CHIQIB...

Bahor uyg'onish fasli. Yurtimiz uzra bahor nafasi kezmoqda. uyg'onish pallasiga kirayotgan ona-tabiati bahorgi quyosh nurlaridan bahramand bo'layotir. Qish qahratonidan eson-omon chiqqan onajonlarimiz, ko'pni ko'rgan momolarimiz ham harakatda... Tumanimiz aholisi ham bahorga peshvoz chiqish maqsadida mahallalarda jam bo'lishdi. Momolarimiz esa yurt farovonligi va to'kin-sochinlikni niyat qilib, chalpak pishirishdi. Bu bahor tashrifi, shirin va totli hayot davom etadi deganidir...

Rishton tumanining 30 dan ziyod mahallalarida esa obodonlashtirish ishlari hashar yo'li bilan boshlanib, 10 dan ziyod mahallalarda sumalaklar tayyorlanib, 2 ta mahallalarda o'tgan-ketgan fuqarolar uchun ko'chalarda chalpak ehsonlari tashkil etildi.

2023-03-02 06:36:22